O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETINING JIZZAX FILIALI

ZAMONAVIY INNOVATSION TADQIQOTLARNING DOLZARB MUAMMOLARI VA RIVOJLANISH TENDENSIYALARI: YECHIMLAR VA ISTIQBOLLAR

mavzusidagi Respublika ilmiy-texnik anjuman materiallari to‘plami

(2024-yil 17-18-may)

(1-qism)

JIZZAX-2024

“Zamonaviy innovatsion tadqiqotlarning dolzarb muammolari va rivojlanish tendensiyalari: yechimlar va istiqbollar” mavzusidagi Respublika ilmiy-texnik anjuman materiallari to‘plami – Jizzax: O‘zMU Jizzax filiali, 2024-yil 17-18-may. 410-bet.

Respublika miqyosidagi ilmiy-texnik anjuman materiallarida zamonaviy innovatsion tadqiqotlarning dolzarb muammolari va rivojlanish tendensiyalari sohasidagi innovatsion tadqiqotlar aks etgan.

Globallashuv sharoitida davlatimizni yanada barqaror va jadal sur’atlar bilan rivojlantirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan islohotlar samarasini yaxshilash sohasidagi ilmiy-tadqiqot ishlariga alohida e’tibor qaratilgan. Zero iqtisodiyotning, ijtimoiy sohalarni qamrab olgan modernizatsiya jarayonlari, hayotning barcha sohalarini liberallashtirishni talab qilmoqda.

Ushbu ilmiy ma’ruza tezislari to‘plamida mamlakatimiz va xorijlik turli yo‘nalishlarda faoliyat olib borayotgan mutaxassislar, olimlar, professor-o‘qituvchilar, ilmiy tadqiqot institutlari va markazlarining ilmiy xodimlari, tadqiqotchilari, magistr va talabalarning ilmiy-tadqiqot ishlari natijalari mujassamlashgan.

Mas’ul muharrirlar: DSc.prof. Turakulov O.X., PhD. O‘ralov A.I.

Tahrir hay’ati a’zolari: p.f.d.(DSc), prof. Turakulov O.X., b.f.f.d. (PhD) O‘ralov A.I., t.f.f.d.(PhD), dotsent Abdumalikov A.A., t.f.n., dots. Baboyev A.M., t.f.f.d.(PhD), dots. Abduraxmanov R.A., p.f.f.d.(PhD) Eshankulov B.S., p.f.n., dots. Alimov N.N., p.f.f.d.(PhD), dotsent Alibayev S.X., p.f.f.d. (PhD) Halimov O‘.H., p.f.f.d.(PhD), dotsent Karshiyev A.A., f.f.f.d.(PhD), dotsent Sindorov L.K., t.f.f.d.(PhD), dotsent Nasirov B.U., b.f.f.d. (PhD), dotsent Mustafaqulov M.A., f.f.f.d. (PhD) Alibekov D.A.., f-m.f.f.d. (PhD) Sharipov X.F., ps.f.f.d.(PhD) Norbekova B.Sh., i.f.n., dots. Tsoy M.P., Qayumov O.A., Jo‘rayev M.M.

Mazkur to‘plamga kiritilgan ma’ruza tezislarining mazmuni, undagi statistik ma’lumotlar va me’yoriy hujjatlarning to‘g‘riligi hamda tanqidiy fikr-mulohazalar, keltirilgan takliflarga mualliflarning o‘zlari mas’uldirlar.

3. Abdulla, Sharafitdinov, and Qurbonboyeva Ruxshonabonu Boboxonovna. "FEATURES OF MENTAL DEVELOPMENT IN ADOLESCENCE." *Next Scientists Conferences*. 2024.
4. Mullabaeva, Nozima, Shokhroza Abdunazarova, and Abdulla Sharafitdinov. "The Role Of Social Environment In The Formation Of Self Awareness Process In Preschool Children." *SPAST Reports* 1.1 (2024).
5. XXX, Sharafitdinov Abdulla, and Eshqulova Nargiza Ximmataliyevna. "SHAXS KAMOLOTIDA XULQ-ATVOR MOTIVLARI." *Conferencea* (2023): 21-25.
6. XXX, Sharafitdinov Abdulla. "TERGOV JARAYONI PSIXOLOGIYASI." *Conferencea* (2023): 1-4.
7. Abdulla, Sharafitdinov. "Characteristics of Emotional Intelligence in Managers." *International Journal of Formal Education* 1.10 (2022): 54-58.
8. Рашидова, Гульноза, and Абдулла Шарафитдинов. "Психологические проблемы у детей и их решение." *Информатика и инженерные технологии* 1.1 (2023): 338-342.

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLANI YETAKCHI FAOLIYAT TURNING RIVOJLANISHI

Bekchanova Kuvanch Roximovna
Urganch davlat universiteti

Annotatsiya: Mazkur maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarning har tomonlama rivojlantirishda maktab ta’limiga tayyorlashda yetakchi faoliyatning ro‘li va uning turlari haqida yetarlicha yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: maktabgacha yoshdagi bolalar, o‘yin, predmetli o‘yinlar, sujetli-rolli o‘yinlar, qoidali o‘yinlar ,maktab ta’limi.

Bugungi kunda maktabgacha ta’limning asosiy vazifalari bolalarni xalqning boy milliy, madaniy, tarixiy merosi va ma’naviy-axloqiy an’analari ruhida tarbiyalash, bolalarda milliy vatanparvarlik hislarini shakllantirish, maktabgacha yoshdagi bolalarda bilim olish ehtiyojini, o‘qishga intilish moyilliklarini shakllantirib, ularni muntazam ravishda ta’lim jarayoniga tayyorlash, bolalarning tafakkurini rivojlantirish, o‘zining fikrini mustaqil va erkin ifodalash malakalarini shakllantirish, bolalarning jismoniy va ruhiy sog‘ligini ta’minlashdan iborat. Bu bosqichda bolalarni maktab ta’limiga tayyorlash masalasi eng dolzarb masalalardan sanaladi. Aynan shuni

e’tiborga olgan holda bugungi kunda mamlakatimizda maktabgacha ta’lim sohasida, bolalarni maktab ta’limiga tayyorlash sohasida tub o‘zgarishlar amalga oshirilmoqda. Maktabgacha ta’lim sohasida Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev faol tashabbusi bilan amalga oshirilayotgan ishlar, qabul qilinayotgan farmon va qarorlar muhim ahamiyat kasb etmoqda.[1]. Har bir bola faqat o‘ziga xos faoliyati, iroda, xarakter, xulq-atvor xususiyatlariga ega. Maktabgacha yoshdagi bolalarning yetakchi faoliyati o‘yindir. Bu yoshdagi bolalarning o‘yinlarini uchga bo‘lish mumkin:

1) predmetli o‘yinlar (15—20 minut oynaladi);
2) sujetli-rolli o‘yinlar (30—60 minut o_ynaladi);
3) qoidali o‘yinlar (1 soatdan 2 kungacha davom etishi mumkin).

Bog‘cha yoshidagi bolalarning o‘yin faoliyatlari masalasi asrlar davomida juda ko‘p olimlarning diqqatini o‘ziga jalb qilib kelmoqda. Bog‘cha yoshidagi bolalar o‘zlarining o‘yin faoliyatlarida ildam qadamlar bilan olg‘a qarab borayotgan sermazmun hayotimizning hamma tomonlarini aks ettirishga intiladilar. Bola atrofidagi narsalar dunyosini bilish jarayonida ular bilan bevosita amaliy munosabatda bo‘lishga intiladi. Bu o‘rinda shu narsa xarakterliki, bola bilishga tashnaligidan atrofdagi o‘zining xaddi sig_adigan narsalari bilangina emas, balki kattalar uchun mansub bo‘lgan, o‘zining kuchi ham yetmaydigan, xaddi sig‘maydigan narsalar bilan ham amaliy munosabatda bo‘lishga intiladi. Masalan: bola avtomashinani yoki tramvayni o‘zi haydagisi, haqiqiy,otga minib yurgisi, uchuvchi bo‘lib, samolyotda uchgisi va rostakam militsioner bo‘lgisi keladi..[2,3] Tabiiyki, bola o‘zidagi bunday ehtiyojlarning birontasini ham haqiqiy yo‘l bilan qondira olmaydi. Bu o‘rinda savol tuglladi. Bolalarning tobora ortib borayotgan turli ehtiyojlari bilan ularning tor imkoniyatlari o‘rtasidagi qarama-qarshilik qanday yo‘l bilan hal qilinadi? Bu qarama-qarshilik faqatgina birgina faoliyat orqali, ya‘ni, bolaning o‘yin faoliyati orqaligina hal qilinishi mumkin. Buni quyidagicha izohlab berish mumkin: birinchidan, bolalarning o‘yin faoliyati qandaydir moddiy mashg‘ulot ishlab chiqarishga qaratilgan faoliyat emas. Shuning uchun bolalarni o‘yinga undovchi sabab (motiv) kelib chiqadigan natija bilan emas, balki shu o‘yin jarayonidagi turli harakatlarning mazmuniga bogliqdir; ikkinchidan, bolalar o‘yin jarayonida o‘z ixtiyorlaridagi narsalarni, o‘zlarini qiziqtirgan, ammo kattalargagina mansub bo‘lgan narsalarga aylantirib, xohlaganlaricha erkin faoliyatda bo‘ladilar. Bolalarning o‘yin faoliyatlari ularning jismoniy va psixik jihatdan garmonik ravishda rivojlanishi uchun birdan-bir vositadir. O‘yin bolalar hayotida shunday ko‘p qirrali faoliyatki, unda kattalarga mansub bolgan mehnat ham, turli narsalar haqida tafakkur qilish, xomxayol surish, dam olish va xushchaqchaqlik jarayonlarining barchasi o‘yin faoliyatida aniq bo‘ladi. Shuni ham ta‘kidlab olish kerakki, o‘yin faqat tashqi muhitdagi narsa hodisalarni bilish vositasigina emas, balki qudratli tarbiya vositasi hamdir. Ijodiy va sujetli o‘yinlarda bolalarning barcha psixik jarayonlari bilan birgalikda ularning individual xususiyatlari ham shakllanadi. Demak, maktabgacha dagi ta‘lim-tarbiya ishlarining muvaffaqiyati ko‘p jihatdan bolalarning o‘yin faoliyatlarini maqsadga muvofiq tashkil qila bilishga bog‘liqdir. [5]

Bolaning maktabga borishi, uning psixologik rivojlanishi va xulq-atvoridagi o‘rni nihoyatda katta. Bu davrda axloqiy xatti-harakat qoidalari o‘zlashtiriladi, shaxsning ijtimoiy yo‘nalishi tarkib topa boshlaydi. O‘qish faoliyati kichik maktab davridagi bolalar psixikasi rivojidagi o‘zgarishlarni belgilab beradi. Maktabga birinchi bor kelgan bola o‘z faoliyatining tub mohiyati va vazifasini to‘la tushunib yetmaydi, balki hamma maktabga borishi kerak, deb biladi. Kattalarning ko‘rsatmalariga amal qilib, tirishqoqlik bilan mashg‘ulotlarga kirishib ketadi. Oradan ma‘lum vaqt o‘tgach, shodiyona lahzalarning taassuroti kamayishi bilan maktabning tashqi belgilari o‘z ahamiyatini yo‘qota boradi va bola o‘qishni kundalik aqliy mehnat ekanligini anglaydi. Shunda bola aqliy mehnat ko‘nikmasiga ega bo‘lmasa, uni o‘qishdan ko‘ngli soviydi, unda umidsizlik hissi vujudga keladi, o‘qituvchi esa bunday holning oldini olish uchun bolaga ta‘limning o‘yindan farqi, qiziqarliligi haqida ma‘lumotlar berishi va uni shu faoliyatga tayyorlashi kerak. O‘qish faoliyati davomida tarkib topgan xususiyatlar bolaning kelgusi rivoji uchun zamin bo‘lib xizmat qiladi. Maktabdagi o‘qish bolalarning bilish ehtiyojlarini tez rivojlanishi va sifatli tarkib atrof-hayotga faol qiziqishlarini yuzaga keltirib, yangi bilim va ko‘nikmalarni egallashlari uchun sharoit yaratadi. Bola asta-sekinlik bilan o‘z psixik jarayonlariga egalik qilib, idrok, diqqat va xotirasini boshqara olishga ovrgana boshlaydi.[4]

Shunday qilib, o‘yin bolalar xayoli tomonidan yaratilgan narsa emas, aksincha, bolalar xayolining o‘zi, o‘yin davomida yuzaga kelib, rivojlanadigan psixik jarayondir. Shuni ham ta‘kidlash joizki, fan-texnika mislsiz rivojlanayotgan hozirgi davrda hayratda qoldiradigan narsalar bolalarga go‘yo, bir mo‘jizadek ko‘rinadi. Natijada ular ham o‘zlarining turli o‘yinlari jarayonida o‘xshatma qilib (ya‘ni, analogik tarzda), har xil xayoliy narsalarni o‘ylab topadilar (uchar ot, odam mashina, gapiradigan daraxt kabilar). Bundan tashqari, bolalarning turli xayoliy narsalarni o‘ylab chiqarishlari yana shuni anglatadi-ki, ular o‘zlarining har turli o‘yin faoliyatlarida faqat atroflaridagi bor narsalarni emas, balki ayni chog‘da ehtiyojlarini ham aks ettiradilar. Bolalarning o‘yin faoliyatlarida turli xayoliy va afsonaviy obrazlami yaratishlari odamning (shu jumladan, bolalarning ham) tashqi muhitdagi narsa va hodisalarni aks ettirish passiv jarayoni emas, balki faol, ijodiy yaratuvchanlik jarayoni ekanligidan dalolat beradi. Bolalar o‘yin faoliyatining yana bir xususiyati bu o‘yin jarayonida bolaning qiladigan xatti-harakatlari va bajaradigan rollarining ko‘pincha umumiylik xarakteriga ega bolishidir.

Shuning uchun bolalarning bunday jamoa o‘yinlari psixologik jihatdan katta ahamiyatga ega. Chunki, bunday o‘yinlar bolalarda irodaviylik, xushmuomalalik, o‘yin qoidalariga, tartib-intizomga bo‘ysungan va shu kabi boshqa ijobiy xislatlarni tarbiyalaydi va rivojlantiradi. Katta bog‘cha yoshida sujetli-rolli o‘yinlar esa o‘z mavzusining boyligi va xilma-xilligi bilan farqlanadi. Bu o‘yinlar jarayonida bolalarda sardorlik xususiyati yuzaga kela boshlaydi, ularda tashkilotchilik ko‘nikma va malakalari rivojlana boshlaydi. Maktabgacha yoshdagi bolalar shug‘ullanadigan ijodiy faoliyatlar orasida tasviriy san‘atning ham ahamiyati juda kattadir. Bolaning tasavvur etish xarakteriga ko‘ra, uning atrof hayotni qanday idrok etishi, xotira,

tasavvur va tafakkur xususiyatlariga baho berish mumkin. Maktabgacha yoshidagi bolalar chizgan rasmlar ularning ichki kechinmalari, ruhiy holatlari, orzu, umid va ehtiyojlarini ham aks ettiradi. Bu yoshdagi bolalar rasm chizishga nihoyatda qiziqadilar. Rasm chizish bolalar uchun o‘yin faoliyatining o‘ziga xos bir shakli bolib hisoblanadi. Bola avvalo ko‘rayotgan narsalarini, keyinchalik esa o‘zi biladigan, xotirasidagi va o‘zi o‘ylab topgan narsalarni chizadi. Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun musobaqa juda katta ahamiyatga ega bolib, aynan shunday qoidali o‘yinlarda muvaffaqiyatga erishishga harakat qilish xususiyati shakllanadi va mustahkamlanadi. Bu yoshdagi bolalarning eng yaxshi daqiqalari musobaqa o‘yinlaridagi yutish va muvaffaqiyatlaridir. Katta maktabgacha yoshdagi bolalar uchun musobaqalar juda katta ahamiyatga ega bo‘lib, aynan shunday o‘yinlarda muvaffaqiyatga erishish motivlari shakllanadi va mustahkamlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1.«O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining —O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta‘lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish kontseptsiyasini tasdiqlash to‘g‘risidagi» Qarori, 2019., 13 may, PQ 4312 son.

2.Goziev E., Anarmetova Sh. Bolalar psixologiyasi. - T.: 1992.

3. E.Goziyev –Umumiy psixologiya. 2010 yil.

4. Gutkina n.i. "Maktabga psixologik tayyorlik. 4-chi ed., Pererab. va qo‘shimcha.- SPB .: Butrus, 2004 yil .

5.Yosh psixologiyasi va pedagogik psixologiya: Ped. in-t. talabalari uchun o‘quv qo‘llanma/ M.G.Davletshin umumiy tahriri ostida. – T.: O‘qituvchi, 1974

INFANTIL XULQ-ATVORNING ASOSIY XUSUSIYATLARI VA BELGILARI

Karakulova Umida Abduvakilovna
O‘zbekiston Milliy universiteti Jizzax filiali
Esanova O‘g‘iloy Jahongir qizi,
Xojiqulova Go‘zal G‘ulomjon qizi
O‘zbekiston Milliy universiteti Jizzax filiali talabalari
umida260686@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada infantilizm xaqida umumiy ma’lumot, uning kelib chiqish sabablari va infantil xulq-atvorning asosiy xususiyatlari va belgilari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: infantil shaxslar, psixik patologiya, qaror qabul qila olmaslik, ulg‘aymagan shaxs.

Psixologiyada yoshi katta kishilarning kundalik hayotda bolaga, aniqrog‘i o‘smirga xos xususiyatlarni namoyon qilishi infantilizm sifatida baholanadi. Ayni vaziyatda qarshingizda ulg‘aymagan, infantil shaxs turgani ta’kidlanadi. Shu bilan birga, buning psixik patologiyalarga umuman daxli yo‘q. Bundan kelib chiqadiki,